

## Maktablar bilan hamkorlik

2021- yil 27-yanvar kuni Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 12-o'rta ta'lrim maktabida "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti dekani R. Xakimov boshchiligidagi "Iqtisodiyot" kafedrasini mudiri B. Sultonov, "Menejment" kafedrasini dotsenti B. Shafkarov, "Yoshlar bilan ishlash bo'yicha" dekan o'rgebnosari J. Turdiev hamda "Iqtisodiyot" kafedrasini assistenti Q. Nosurullaevlar hamrohligida yuqori sinif o'quvchilari bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda fakultet dekani R. Xakimov o'quvchilarni institut faoliyati, ta'lim yo'nalishlari, talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirdi. Institutga biriktirilgan maktab bilan kelajakda o'rnatilgan hamkorlik yuzasidan o'quvchilar uchun maxsus ochiq darslar tashkil etish, maktab o'qituvchilarini darslarni tashkil etish borasida uslubiy yordamlar berish hamda o'quvchilarni Institut bilan tanishtirish maqsadida tashriflar tashkil etish borasida kelishib olindi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**